

GENDER TENGLIGI, XOTIN-QIZLAR VA ERKAKLARGA TENG HUQUQ VA IMKONIYATLAR

Muxamadiyev Xojiakbar Asliddinovich

Norpo'latova Shahzoda Alisher qizi

Umarova Rohatoy Xurshid qizi

Esonova Sitora Berdiboy qizi

ORCID:0000-0003-2571-72

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11236881>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatiining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lif hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihatni haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Gender, teng huquqlilik, ijtimoiy adolat, siyosat, ta'lif, ilm-fan, boshqaruv, madaniyat, tazyiq, zo'ravonlik.

EQUAL RIGHTS AND OPPORTUNITIES FOR MEN AND WOMEN, AS WELL AS GENDER EQUALITY

Abstract. The social dimension of the connection between men and women is discussed in this article in relation to all aspects of society's life and activities, including politics, the economics, the law, ideology and culture, science, and education. Discussed in detail.

Key words: politics, education, science, management, gender, equality, social justice, culture, oppression, and violence.

ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО, РАВНЫЕ ПРАВА И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ ЖЕНЩИН И МУЖЧИН

Аннотация. В данной статье социальный аспект взаимоотношений мужчины и женщины проявляется во всех сферах жизни и деятельности общества, включая политику, экономику, право, идеологию и культуру, образование и науку. покрыто о.

Ключевые слова: Гендер, равенство, социальная справедливость, политика, образование, наука, менеджмент, культура, угнетение, насилие.

Keyingi yillarda O'zbekistonda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan yangi bosqichdagi tub islohotlardan pirovard maqsad, eng avvalo, inson huquq va manfaatlarini to'liq ro'yobga chiqarishdan iboratdir.

Konstitutsianing 19-moddasi fuqarolarning jinsidan qat'iy nazar qonun oldida tengligini o'rnatgan bo'lsa, Konstitutsianing 58-moddasi: «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar», - deb, umuman ularning barcha sohada, munosabatda tengligini kafolatlaydi.

Gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatiining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lif hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihatni.

Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqlilagini amalda ta'minlash maqsadida ko'plab huquqiy hujjatlar qabul qilingan va tadbirlar belgilangan.

Bular, bir tomonidan, ayollarga bilim olish, kasb egallash, mehnat qilish, mehnatiga haq to'lashda, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishlari uchun erkaklar bilan teng

imkoniyatlar yaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ayollarning oiladagi o'rni, jismoniy imkoniyatlari hisobga olinib, ularning mehnat qilishi, sog'lig'ini saqlashi uchun qulay sharoitlar va imtiyozlar belgilanishida ko'rinadi.

Ikki narsa, bir tomondan, teng imkoniyatlar, ikkinchi tomondan, ayollarga qo'shimcha sharoit va imtiyozlar yaratilishi bilan ayollarning teng huquqliligi ta'minlanmoqda.

Ayollarga bilim olish, mehnat qilish, siyosiy hayotda ishtirok etish huquqi, imkoniyati berilib, bu huquqlarning amalga oshishi uchun qo'shimcha imtiyozlar berilmasa, bunday teng huquqlilik ayollarga foyda keltirishdan ko'ra, ularni qiyab qo'yadi. Sababi, ayollarning oiladagi vazifasi juda katta va jismoniy qobiliyati ham erkaklarniki singari emas. Agar ayollar oila ishlariga yetarlicha vaqt ajrata olmasa, ularning eng muhim vazifasi - bola tarbiyasi zarar ko'radi. Bu jamiyat uchun ham zararlidir. Shuning uchun imtiyozlar ayollarning oiladagi o'miga har tomonlama qulaylik yaratishni ko'zlaydi.

Ayollarning oiladagi yumushlarini yengillashtirishga qaratilgan tadbirlar natijasida turli tarmoqlarda mehnat qiluvchi ayollarning salmog'i ortib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy sohada, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalarida ular yetakchi hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqidan iqtibos keltirishni o'rini deb bilaman: «Meni kishilarimizning ongida paydo bo'lgan stereotip ko'p o'ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo'rg'onining qo'riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to'g'ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerak», - deb ta'kidladi.

Davlatimiz ayollarning davlatni boshqarish ishlarida ko'proq ishtirokini ta'minlash, rahbarlik lavozimlariga jalb qilish uchun ham tegishli imtiyozlar yaratmoqda. Saylov qonunchiligiga o'zgartirish kiritilib, siyosiy partiyalardan ko'rsatilayotgan nomzodlarning kamida 30 foizi ayppardan iborat bo'lishining belgilanishi munosabati bilan vakillik organlari tarkibining ma'lum qismini ayol deputatlar tashkil etdi. Oliy Majlis Senat raisi, Bosh prokuror o'rinnbosari ayol kishi ekanligi, qo'mitalarning raislari orasida, hukumat tarkibida ayollarning mavjudligi ayollar bilan erkaklar teng huquqliligining kafolati natijasidir.

Birgina 2019-yilda «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi hamda «Xotin-qizlarni tazyiqlar va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari qabul qilindi. «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi qonunda davlatimizda gender tenglik qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida olib borilishi belgilandi.

«Xotin-qizlarni tazyiqlar va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi qonun bilan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilandi. Jumladan, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi gender siyosati yuritiladi. Davlat dasturlari hamda strategiyalari ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiqlar va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhiti yaratiladi. Xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari tazyiqlar va zo'ravonlikdan himoya qilinishi ta'minlanadi. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlashga e'tibor qaratiladi. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiqlar va zo'ravonlikning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo'yish

uchun samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlar yaratiladi. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiqlar va zo‘ravonlik sodir etilishiga olib keladigan sabab hamda shart-sharoitlarni bartaraf etish choralar ko‘riladi.

Huquq va erkinliklar qonunlarda mustahkamlab qo‘yilib, ularning amalga oshishi, ta’minlanishi uchun qo‘shimcha choralar ko‘rilmasa, kafolatlar tizimi bo‘lmasa, unda huquq va erkinliklar qog‘ozda qolib ketaveradi. Davlatimiz fuqarolarning huquq va erkinliklarini Konstitutsiya va qonunlarda belgilash bilan ularning amalga oshishini ta’minlovchi kuchli kafolatlar tizimini ham yaratgan va uni takomillashtirish bo‘yicha muntazam ish olib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi Maxsus qismi VII bobining «Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar» deb nomlanishi, ko‘plab harakatlar uchun jinoiy javobgarlikning belgilanishi ham huquq va erkinliklar davlatning alohida e’tiborida ekanligini ko‘rsatadi va kafolatlarni kuchaytiradi.

Jamiyat va davlat hayotida xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligin, shuningdek, xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Shu bois, yangilangan Konstitutsiyamizning **58-moddasida** “Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi”, degan norma mustahkamlandi.

2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasiga ko‘ra, **gender tenglik** bu – siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim, ilm-fan, sport va boshqa sohalarda xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini ta’minlashdir.

Jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda gender tenglikni ta’minlanishi xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, qonunlar va turli qarorlar qabul qilinishida ishtirokini yanada kengaytirish imkoniyatini beradi. Masalan, hozirda boshqaruva lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 33 foizni, Oliy Majlisda esa 32 foizni tashkil etadi.

Bundan tashqari, gender tenglik ta’lim olish, mehnat qilish, tadbirkorlik, ijod qilish, madaniyat sohalarida ham ta’minlanishi xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshiradi.

Ayni vaqtda ham xotin-qizlarning ulushi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida 82 foizni, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, madaniyat va san’at sohalarida 72 foizni, sanoatda 38 foizni, tadbirkorlikda 35 foizni, oliy ta’limda 46 foizni tashkil etishi ham sohalar rivojidagi egallagan munosib o‘rnidan dalolatdir.

Har qanday xalqning yetuklik darajasini, avvalo, ayollarning ilmiy-madaniy kamoloti belgilab beradi. Shu bois, ularning ta’lim olishlari, ilm-fan bilan shug‘ullanishlari uchun sharoit yaratish davlatning alohida vazifasiga aylandi. Natijada, birgina 2022-yilda oliy o‘quv yurtlariga qabul qilingan talabalarning 49,9 foizini xotin-qizlar tashkil etdi.

Mazkur normaning kiritilishi xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat hokimiyatidagi lavozimlariga kengroq jalb etish imkoniyatini yaratadi. Xalq farovonligi, jamiyat tinchligi hamda iqtisodiy barqarorlikda erkak va ayolning teng huquqligi muhim o‘rin tutishini e’tiborga olsak gender tenglikni ta’minlash vazifasini davlat zimmasiga yuklatilishi barqaror rivojlanishning zarur talabidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, xalq farovonligi, tinchligi hamda iqtisodiy barqarorlikda erkak va ayolning teng huquqliligi muhim o‘rin tutishini e’tiborga olsak gender tenglikni ta’minlash vazifasini davlat zimmasiga yuklatilishi barqaror rivojlanishning zarur talabidir. Shu kabi normalar Germaniya, Irlandiya, Italiya kabi davlatlar konstitutsiyalarida ham mavjud.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023. 39-42-b.
2. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to‘g‘risidagi Qonun 2019-yil 2-sentabr.
3. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. – To‘ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022. – 144-146-bet.
4. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. -Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi. Harbiy-texnik instituti, 2019. 272-285-betlar.
5. Jiganmuratova Gulnoz. Sotsiologiya tarixi. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 466 b. / https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=fdb0TmYAAAAJ&citation_for_view=fdb0TmYAAAAJ:W7OEmFMy1HYC
6. Маматов Х.Т. Конституциявий ҳуқуқ: дарслик. – Тошкент: Yurist-media markazi, 2018. 233-235 бетлар.
7. Конституционное право. Учебник//Авторский коллектив. – Ташкент: Ташкентский государственный юридический университет, 2018 г. С. 186-214.